
PREZIDENT SAYLOVI SANASI O`ZGARTIRILDI

O`zbekiston Respublikasining 2021 yil 8 fevraldagi "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida"gi O`RQ-670-sonli Qonuni qabul qilindi.

Qonunga muvofiq quyidagilarga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritildi:

- Konstitutsiyaga;
- "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to`g`risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga;
- "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida"gi Qonunga;
- Saylov kodeksiga.

Birinchiidan, Prezident saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga va Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda - oktyabr oyi (ilgari - dekabr oyi) uchinchi o`n kunligining birinchi yakshanbasida o`tkaziladi.

Ikkinchiidan, saylovda siyosiy partiyalarning ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag`lar («Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida»gi Qonunning 8-m. 4-q.) quyidagilarga sarflanishi kerak:

- tashviqot olib borishga;
- nomzodlarning ishonchli vakillari va tashviqot o`tkazish uchun jalb o`tilinadigan boshqa faollar ishini tashkil etishga;
- saylov kampaniyasini o`tkazishga doir umumpartiyaviy tadbirlarga.

Shuningdek, endi siyosiy partiya saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun o`zga ajratilgan davlat mablag`lari yuzasidan oraliq va yakuniy hisobotlarni taqdim etishi lozim. Siyosiy partiyalarning hisobotlari uning rasmiy veb-saytlarida va bosma nashrida e`lon qilinadi.

Uchinchiidan, Prezident saylovini, Qonunchilik palatasi deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlari saylovini o`tkazish bo`yicha saylov uchastkalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan, tuman, shahar Kengashlari deputatlari saylovini o`tkazish bo`yicha saylov uchastkalari esa tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan tuziladi (Saylov kodeksining 10-m. 1-q.).

Saylov kodeksning 29-moddasi 1-qismi quyidagi jumla bilan to`ldirildi: Chet davlatlarda turgan fuqarolarga saylovchilar ro`yxatidagi o`ziga tegishli ma`lumotlar bilan tanishish imkoniyati TIV, O`zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonolari rasmiy veb-saytlari orqali ham ta`minlanadi.

Endi saylovchilarning ro`yxatiga saylovgacha o`zgartirishlar kiritish to`xtatiladigan muddat 3 kundan 5 kunga o`zgartirildi (Saylov kodeksining 29-m. 5-q.).

Farg`ona viloyat sudining sudyasi

B.Ergashev

Jinoyat ishlari bo`yicha

Beshariq tuman sudining raisi

F.Sobirov